

HY282 Istanbul – Toshkent yo‘nalishidagi aviaqatnov bo‘yicha axborot xabari

2024 30 Oktabr

HY282 aviaqatnovi jadvalga muvofiq Istanbuldan Toshkentga parvozga jo'nab ketdi. Parvoz davomida samolyot komandiri yo'lovchining o'zini yomon his qilgani sababli Anqara xalqaro aeroportiga qo'nishni so'radi. Toshkent vaqti bilan 10:12 da samolyot muvaffaqiyatli ravishda Anqara shahridagi aeroportga qo'ndi. Tibbiy xizmat xodimlari yo'lovchini aviaqatnovdan yechishdi va tibbiyot muassasasiga yetkazishdi.

Aviakompaniyaga tegishli havo kemasi Anqaradan Toshkent vaqti bilan 13:20 da jo'nab ketdi. Toshkent xalqaro aeroportiga 16:10 da yetib kelishi kutilmoqda.